# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8

2023




Tosh o‘rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati


74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982


1931 TDIU TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Eshov Mansur Po'latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
**Karimov Norboy G'aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universititi rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To'lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

JSTga a’zolik Yangi O‘zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi ..................... 6
**Muxiddin Kalonov,** i. f. d., professor
O‘zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi ..................... 11
**Jumayev Olimjon Sadulloyevich,** tadqiqotchi
“Yashil” iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari ..................... 18
**Yokubjanov Doniyor Islom o‘g‘li,** tayanch doktorant
Suv ta’minot korxonalarining biznes jarayonlari bo‘yicha asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI)ni baholash ..................... 24
**Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich,** PhD
O‘zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag‘larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish ..................... 27
**Karimov Akramjon Ikromjon o‘g‘li,** PhD
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi ..................... 34
**Mamaraximov Bekzod Erkinovich,** i. f. n., dotsent
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari ..................... 39
**Normurodova Zebo Eshmaxmatovna,** kafedra o‘qituvchisi
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar ..................... 44
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi
Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili ..................... 50
**Berdiyev Anvar Abduraxmonovich,** tayanch doktorant
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati ..................... 56
**G‘aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi,** mustaqil tadqiqotchi
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish ..................... 61
**Olimjanova Nigora Alisherovna,** mustaqil izlanuvchi
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli ..................... 65
**Saydirasulov Laziz Alimovich,** doktorant
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta’sir etuvchi omillar ..................... 71
**Tulayev Mirzakul Salamovich,** kafedra dotsenti; **Axmedov Akbarali Sultonmurodovich,** i. f. n (PhD)
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций ..................... 78
**Урдабаев Жарылкап Ермекбаевич,** независимый исследователь
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий ..................... 83
**Махмудов Носир Махмудович,** д. э. н., профессор; **Фозилова Фирангиза Комиловна,** докторант
Qishloq xo‘jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati ..................... 89
**Sherali Xolliyev,** kafedra o‘qituvchisi
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o‘rni ..................... 94
**Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna,** mustaqil tadqiqotchi
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o‘ziga xos jihatlari ..................... 99
**Xakimov Ziyodulla Axmadovich,** dotsent; **Axmadova Rayxona Jasurbek qizi,** tadqiqotchi
“Universitet-ishlab chiqarish” integratsiyasi sharoitida oliy o‘quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari ..................... 103
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo‘ja qizi,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi ..................... 108
**Abdiyeva Flora Botir qizi,** tayanch doktorant
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar ..................... 114
**Abdullayev Farxod Ozodovich,** mustaqil tadqiqotchi
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari ..................... 119
**Hakimjon Hakimov,** tadqiqotchi
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country ..................... 125
**Sanakulova Barnogul Rizakulovna,** Doctor of Economic Science, Professor;
**Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli,** Senior researcher

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Sanoat korxonalarining iqtisodiy oʻsishi va barqaror rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari ........129
**Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi**
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution ........133
**Mirziyo Sodikov Odiljon ogli**
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili ........138
**Roʻzmamatov Abbos Tolibjon oʻgʻli,** magistrant
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish ........144
**Saydullayev Azamat Joʻraqul oʻgʻli,** tayanch doktorant
Eksport – mamlakat iqtisodiy oʻsishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida ........151
**Sharifi Ahmad Sakhrob,** mustaqil izlanuvchi
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны ........156
**Суюнова Фотима Баходир кизи,** базовый докторант
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi ........161
**Xatamov Nurbek Ochildiyevich,** erkin tadqiqotchi
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni oʻqitish va rivojlantirishning oʻrni ........169
**Gʻaniyeva Dilnoza Baxriddin qizi,** doktorant
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане ........174
**Жуманиязова Феруза,** PhD, доцент
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari ........179
**Mamatov Bahromjon Shavkatovich,** dotsenti, PhD
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari ........184
**Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna,** mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning oʻrni ........190
**Nilufar Sharipova,** PhD
Dunyoda qorakoʻl teriga boʻlgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar ........197
**Nurillayev Jamoliddin Yarashevich,** doktorant, i. f. n., dotsent
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va koʻrsatkichlari ........201
**Oʻroqov Mamurali Odil oʻgʻli,** tayansh doktarant
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi ........208
**Razzaqov Jasur Hamraboyevich,** dotsent, PhD
Сравнительный анализ методов оценки финансирование инновационных разработок предприятие ........212
**Рузиева Дилноза Абдусаматовна,** независимый исследователь
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yoʻllari ........216
**Saydullayev Shaxzod Sherzodovich,** PhD
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения ........222
**Хажиев Бахтиёр Душабоевич,** dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari. ........227
**Adizov Sardor Rashidovich,** mustaqil izlanuvchi
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish ........231
**Mamatov Sardor Axmatjonovich,** mustaqil tadqiqotchi
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili ........238
**Abrorov Sirojiddin Zuxriddin oʻgʻli,** PhD
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана ........243
**Мирзахалилова Азизахон Алишеровна,** докторант
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish ........249
**Sultanov Maxmud Axmedovich,** dotsent, PhD
Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining oʻrni ........254
**Xojiyev Elshod Yoqub oʻgʻli,** PhD; **Fayzullayev Shuhrat Sherali oʻgʻli,** tayanch doktorant
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики ........259
**Отакулов Махамаджон Каримович,** PhD, и.о. доцент
Milliy turizm tarmogʻida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ........264
**Xalilov Sirojiddin Sherali oʻgʻli,** PhD
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari ........268
**Eshmatov Sanjar Ashirqulovich,** mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari ........................................272
**Gadoyev So‘hrob Jumakulovich,** PhD, dotsent
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея ..................................277
**Алимова София Розумбаевна,** независимый исследователь
Hududlarda oliy ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi yo‘nalishlarini takomillashtirish ........................................282
**Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich,** tayanch doktorant
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish ........................................290
**N. N. Ismatullayeva,** tayanch doktarant
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili ........................................293
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD
Temir yo‘l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili ........................................298
**Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna,** tayanch doktorant
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка ........................................304
**Жураева Нодира Фузулий кизи,** ассистент кафедры
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug‘urtalashni takomillashtirish yo‘llari ........................................310
**G. Abduvosidova,** kafedra o‘qituvchisi
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari ........................................315
**Nazarov Shohbek Isroilovich,** magistrant
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash strategiyasini ishlab chiqish ........................................320
**Mamatov Axmetjon Atajanovich,** professor; **Allaberganov Zakir Gayibovich,** dotsent
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari ........................................327
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o‘g‘li,** magistrant
Byudjyetdan tashqari mablag‘lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli ........................................330
**Norov Akbar Ruzimamatovich**
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o‘sish jarayonlari bilan bog‘liqligi ........................................335
**Xoliqov Ulug‘bek Rustamovich,** t.f.n.
Sun’iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta’siri: xorijiy tajriba ........................................341
**N.N.Ro‘ziyev**
O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning
iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish ........................................350
**Astanov Sherzod Rustamovich,** mustaqil tadqiqotchi
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports
through Green Strategies ........................................356
**Nosirova Charos**
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari ........................................364
**Irgasheva Gulbahor Sodiqovna,** tayanch doktorant
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo‘llari ........................................369
**Abduxamidova Gulxayo,** tadqiqotchi
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili ........................................374
**Xatamov Nurbek Ochildiyevich,** erkin tadqiqotchi
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций
через рынок капитала ........................................380
**Дадаханова Саида Махаммаджон кизи,** докторант
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами ........................................386
**Хайдарова Малика Шакирджановна,** преподаватель кафедры
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili ........................................396
**S.T.Toshaliyeva,** PhD
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a’zo bo‘lish xususida ........................................403
**Ruzibayev Jahongir Nodirovich,** tadqiqotchi
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O‘zbekiston Respublikasi
iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida ........................................407
**Nabiyev Feruz Nurmurodovich,** tadqiqotchi
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish ........................................412
**Imomova Nodira Shavkatovna** tadqiqotchi, **Sultonov Mansur Qilichevich** PhD
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish ........................................416
**Xashimova Naima Abitovna,** i.f.n., professor; **Ergashev Shoxrux Vosiljon o‘g‘li assistent**
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar ........................................421
**M.A.Saparova, talaba**



# ISHCHI KUCHI BOZORINING AMAL QILISH METODOLOGIYASI

**Mamaraximov Bekzod Erkinovich**
TDIU kafedra mudiri, i. f. n., dotsent

Annotatsiya: Maqolada ishchi kuchi bozori uning amal qilishi, undagi ko'rsatkichlarni hisoblash metodologiyasi va ularning amal qilish holatlari o'rganilgan. Shuningdek, mamlakatimizda ishchi kuchi bozoridagi ko'rsatkichlar, ishchi kuchi resurslari, iqtisodiy faol ishchi kuchi, iqtisodiyotda bandlar va ishsizlarning holati dinamik tarzda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ishchi kuchi resurslari, iqtisodiy faol ishchi kuchi, iqtisodiyotda bandlar va ishsizlar.

Аннотация: В статье рассматривается рынок рабочей силы, его функционирование, методика расчета его показателей и их применение. Также в нашей стране динамически анализировались показатели рынка рабочая сила, ресурсы рабочей силы, экономически активной рабочей силы, состояния занятых и безработных в экономике.

Ключевые слова: ресурсы рабочей силы, экономически активная рабочая сила, занятая и безработная в экономике.

Abstract: The article examines the labor market, its operation, the methodology of calculating its indicators and their application. Also, the indicators of the labor market, labor resources, economically active labor force, the state of the employed and unemployed in the economy were dynamically analyzed in our country.

Key words: labor resources, economically active labor force, employed and unemployed in the economy.

## KIRISH

Har bir mamlakatda yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, bandlik hamda mehnat unumdorligi kabi iqtisodiy kategoriyalar o'rtasida o'zaro bog'lanishlar mavjud. Ular orasidan iqtisodiy o'sish va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mamlakat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Qaysi mamlakatda iqtisodiy o'sish va aholi bandligi o'rtasida o'zaro uzviy bog'lanishning yuqori darajasi ta'minlansa, o'sha mamlakatda iqtisodiy taraqqiyot sur'atlari jadallashadi. Aksincha, bu muhim ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchsiz bo'lsa, mamlakat taraqqiyotida qator muammolar kelib chiqadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Iqtisodchi olimlar L. V. Strelkova., S. S. Kabanovlar, "…bir tomondan iqtisodiy o'sish kelajakda yangi ish o'rinlarini ochish imkonini bersa, ikkinchi tomondan xarajatlarning kamayishi, mehnat unumdorligining oshishi, ishlab chiqarishda samaradorlikning o'sishi kabi jarayonlarning rivojlanib borishi natijasida band aholi sonining qisqarib borishiga olib keladi", deb ta'kidlaganlar. Demak, iqtisodiy o'sish hamma sohada ham mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini anglatavermaydi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish uzoq muddatda bir tekis va uzluksiz davom etmaydi. U iqtisodiy beqarorlik davrlari bilan uzilib turadi. Ushbu davrlar aholi bandligi muammolarining keskinlashuvi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiy o'sish va bandlik darajasining oshishi o'rtasida muvofiqlikka erishilsa, iqtisodiy o'sish uzoq va barqaror sur'atda amalga oshadi. Shu sababli davlat bandlik masalasiga jiddiy e'tibor qaratib, uni tartibga solib turish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ch. Aoyagi va G. Ganelli tadqiqotlarida inklyuziv o'sishni ta'minlovchi ishsizlikning kamayishi, savdo erkinligi va unumdorlikning o'sishiga qaratilgan budjet-soliq, pul-kredit siyosati hamda tarkibiy o'zgarishlarni o'sish sifati omillari deb qaragan. Shuningdek, ular tadqiqotlarida qayta taqsimot, inflyasiya, YaIM, qishloq xo'jaligida ish bilan bandlik, ishsizlik darajasi, savdo erkinligi, mehnat unumdorligi, aholi jon boshiga YaIM (bir davr avvalgi), eksportniyu YaIMdagi ulushi, aholi jon boshiga YaIM kabi omillarni ham sanab o'tishgan. [1]

1 Aoyagi Ch., Ganelli G. Asia's Quest for Inclusive Growth Revisited / IMF, 2015.

R. Anand, S. Mishra, Sh. Peyris tadqiqotlarida makroiqtisodiy barqarorlik, inson kapitali, tarkibiy o‘zgarishlar, globalizasiya sharoitida to‘g‘ri xorijiy investisiyalar hamda iqtisodiyotning ochiqlik darajasi inklyuziv o‘sish omillari sifatida qayd qilinadi. [2]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ish bilan band bo‘lganlar va ishsizlar ma’lum bir davrda ishchi kuchi yoki faol aholini tashkil qiladi, bu ma’lum bir vaqtda ishchi kuchi taklifini tashkil etuvchi shaxslar sonini tavsiflaydi. Uchinchi toifaga (potensial – ishchi kuchidan tashqarida bo‘lgan shaxslar) ishsiz, izlanmagan va ishlashga tayyor bo‘lmagan, shu jumladan, mehnatga layoqatli yoshdan kichik bo‘lgan odamlarning qoldiq guruhlari kiradi, ya’ni, bu guruh hozirgi vaqtda iqtisodiy nofaol aholini ifodalaydi. Bu munosabatni quyidagicha ifodalash mumkin:

**Aholi** = ishchi kuchi resurslari + ishchi kuchi bo‘lmagan shaxslar;

**Ish kuchi resurslari** = iqtisodiy faol aholi + iqtisodiy nofaol aholi;

**Iqtisodiy faol aholi** = ish bilan bandlar + ishsizlar.

**Ish bilan bandlar** = rasmiy sektorda bandlar + norasmiy saktorda bandlar + chet elga ishlash maqsadida chiqqan migrantlar.

Yana bir muhim ko‘rsatkich, ish bilan band aholi – ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilingan ishchi kuchining faol qismidir. Bandlik va o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlash o‘rtasidagi farq bandlik nafaqat ish haqi yoki maosh, balki foyda yoki oila daromadi uchun ishlash, shu jumladan, yuqorida aytilganidek, o‘z iste’moli uchun ishlab chiqarish ekanligini ta’kidlash mumkin. Bunday yondashuv, shuningdek, bandlikning har ikkala ish turiga tegishli atamalardan foydalanish imkonini beradi. Biroq, bu farq bandlik maqomini baholash imkonini bermaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi “Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1011-son qarorida bu ko‘rsatkichlarga aniqlik kiritilgan holda ishchi kuchi bozorining amal qilish holati va ularni hisobga olish metodikasida aniqlik kiritib o‘tilgan.

Mehnat resurslari soni mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni va mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar soni yig‘indisi sifatida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

**LR = WAPM – WTP** (1)[3]

bunda:
LR – mehnat resurslari;
WAPM – mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi;
WTP – ishlayotgan o‘smirlar va pensionerlar.

WAPM soni mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar) sonidan mehnatga layoqatli yoshdagi I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek, imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar sonini chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi:

**WAPM = Mp(16 – 59) + Wp(16 – 54) – Ip – PP**

bunda:
Mp (16 – 59) – 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar;
Wp (16 – 54) – 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar;
Ip – mehnatga layoqatli yoshdagi I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar;
PP – imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi pensionerlar.

Mehnat bilan bandlar soni quyidagi formula bo‘yicha hisoblab chiqiladi:

**E = Eos + Eis + LM**

bunda:
Eos – iqtisodiyotning rasmiy sektorida mehnat bilan bandlar;

2 Anand R., Mishra S., Peiris Sh. Inclusive Growth: Measurement and Determinans / IMF, 2013
3 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi “Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1011-son qaroriga 4-ILOVA

Eis – iqtisodiyotning norasmiy sektorida mehnat bilan bandlar;

LM – migrant mehnatchilar – chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet ellardagi O‘zbekiston Respublikasi vakolatxonalarida ishlovchilardan tashqari.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo‘lganlar sonini O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar ma’lumotlari asos bo‘lib xizmat qiladi. Unga ko‘ra, iqtisodiyotning norasmiy sektorida mehnat bilan band bo‘lganlar jumlasiga soliq organlarida hisobga turmagan quyidagi shaxslar kiradi:[4]

- davlat ijtimoiy sug‘urta badali to‘lamasdan haqiqatda dehqon xo‘jaliklarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan dehqon xo‘jaliklari a’zolari;
- uyda pulli xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmagan tadbirkorlarda (enagalar, uy xizmatchilari, uy oshpazlari, avtomobil haydovchilar, qorovullar va boshqalar) yollanib ishlash bilan mustaqil band bo‘lgan shaxslar;
- tadbirkorlarga yollanib ishlovchi shaxslar, shu jumladan, ularning oila a’zolari hamda davlat ijtimoiy sug‘urta badali to‘lovisiz va mehnat munosabatlari rasmiylashtirilmagan jismoniy shaxslar (quruvchilar, yuk tashuvchilar, farroshlar, ishchilar va boshqalar).

Ishchi kuchi resurslari iqtisodiy faol va nofaol aholiga taqsimlanadi. Iqtisodiy faol aholiga ish bilan band bo‘lgan fuqarolar va ishsizlar kiradi.

Iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi – ish bilan band va ishsiz deb hisoblanmaydigan shaxslar, shu jumladan:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotgan hamda ish haqiga yoki mehnat daromadiga ega bo‘lmagan o‘quvchilar va talabalar;
- uy bekalari hamda bolalarni parvarish qilish bilan band bo‘lgan ishlamayotgan ayollar;
- ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo‘lmagan shaxslar.

$$\mathbf{EIP = PS + IW + VUP} \quad (3)$$ [5]

bunda: EIP – iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi;

PS – ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qiyotgan o‘quvchilar va talabalar;

IW – bolalarni parvarish qilayotgan ishlamaydigan ayollar;

VUP – uy bekalari va mustaqil ravishda ish bilan band bo‘lmagan shaxslar, shuningdek, ko‘char va ko‘chmas mulkdan daromad oladigan ishlamaydigan shaxslar;

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda ta’lim olayotgan yoshlarning soni yildan-yilga oshib bormoqda. Chunki respublikada ta’limni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi natijasida yangi qurilayotgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga o‘quvchilarning jalb etilishi iqtisodiy nofaol aholining o‘sishiga bevosita ta’sir qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi jamoat ishlari jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 799-sonli qaroriga asosan jamg‘arma mablag‘lari hisobidan haq to‘lanadigan jamoat ishlarini amalga oshirish uchun buyurtmalar quyidagi ish beruvchilar tomonidan beriladi. Jumladan:

- budjet tashkilotlari va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoat ishlariga jalb qilingan ishsiz va band bo‘lmagan shaxslarning ish haqi bo‘yicha to‘lovlar 100 foiz miqdorida;
- boshqa tashkilotlar, tadbirkorlik sub’yektlari, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan jamoat ishlariga jalb qilingan ishsiz va band bo‘lmagan shaxslarning ish haqi bo‘yicha 50 foiz miqdorida to‘lanadi.

Mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlari, iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o‘zgarishlarning davom etayotganligi hamda O‘zbekistonda to‘la bandlik darajasi ta’minlanmaganligi bois ekstensiv omillarga ham e’tibor berish zarur.

Mustaqillikning ilk yillaridan mamlakatimiz aholisining tabiiy o‘sish darajasi yuqori sur’atlarda saqlanib qoldi. Xususan, 2010–2022-yillarda mamlakatimiz aholisi soni 24,7 mln. kishidan 36,0 mln. kishiga yetdi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlariga qaraganda, bugungi kunda respublikada iqtisodiy faol ishchi kuchi resurslari soni 2022-yilda 15038,9 ming kishini tashkil etadi (1-jadval).

---

4 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1011-son qaroriga 4-ILOVA “O‘zbekiston Respublikasining mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish hamda ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo‘lmagan aholini hisoblash METODIKASI”

5 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1011-son qaroriga 4-ILOVA “O‘zbekiston Respublikasining mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish hamda ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo‘lmagan aholini hisoblash METODIKASI”

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida ishchi kuchi resurslarining taqsimlanishi, (ming kishi) [6]

| Yil | Aholi soni (mln. kishi) | Ishchi kuchi resurslari soni | Iqtisodiy faol ishchi kuchi soni | Iqtisodiyotda band bo‘lganlar soni | Ishsizlar soni |
|---|---|---|---|---|---|
| 2010 | 28,5 | 16726,0 | 12286,6 | 11628,4 | 658,2 |
| 2011 | 29,1 | 17286,4 | 12541,5 | 11919,1 | 622,4 |
| 2012 | 29,5 | 17564,3 | 12844,1 | 12223,8 | 620,3 |
| 2013 | 30,5 | 17814,1 | 13163,0 | 12523,3 | 639,7 |
| 2014 | 31,0 | 18048,0 | 13606,3 | 12818,4 | 653,8 |
| 2015 | 31,5 | 18276,1 | 13767,7 | 13058,3 | 709,4 |
| 2016 | 32,1 | 18488,9 | 14022,4 | 13298,4 | 724,0 |
| 2017 | 32,7 | 18666,3 | 14357,3 | 13520,3 | 837,0 |
| 2018 | 33,3 | 18829,6 | 14641,7 | 13273,1 | 1368,6 |
| 2019 | 33,9 | 18949,0 | 14876,4 | 13541,1 | 1642,5 |
| 2020 | 34,6 | 19158,2 | 14797,9 | 13239,6 | 1558,3 |
| 2021 | 35,3 | 19334,9 | 14980,7 | 13538,9 | 1441,8 |
| 2022 | 36,0 | 19517,5 | 15038,9 | 13706,2 | 1332,7 |

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2010–2022-yillar davomida respublikada iqtisodiy faol ishchi kuchi resurslari soni 12286,9 ming kishidan 15038,9 ming kishiga ortgan bo‘lib, iqtisodiyotda bandlar sonining o‘zgarishi 2010-yildagi 11628,4 ming kishidan 2022-yilda 13706,2 ming kishiga o‘sgan.

Aholining yuqori tabiiy o‘sishi saqlanib qolinishiga qaramay, amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yangi ish o‘rinlarini yaratish va ishchi kuchi bandligini ta’minlashga qaratilgan maqsadli davlat dasturlarini izchil amalga oshirilishi oqibatida tadqiq etilayotgan davrda mamlakatimiz ishchi kuchi bozorida ishchilarning bandligi darajasi band aholi sonining mehnatga layoqatli aholi soniga nisbatan baholanganda o‘rta hisobda 68,0 foizni tashkil etdi. O‘rganilayotgan davrda ishsizlik darajasi o‘rta hisobda 5,7 foizga teng bo‘ldi.

Tahlil etilayotgan davrda mamlakatimiz ishchi kuchi bozorida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 12,5 mln. kishidan 20,1 mln. kishiga yetdi. Iqtisodiy faol ishchi kuchi soni esa 1,6-marta ortgan holda 14,8 mln. kishini tashkil etdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda ish bilan bandlik muammolarining keskinligi mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ko‘payish sur’atlari yuqori bo‘lib, ularni ish bilan ta’minlash masalasi nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki bu yoshlarni sanoat sohasidagi mehnat ko‘nikmalar va malakaga ega bo‘lishlari masalasini ilgari suradi.

Ishchi kuchi bozorini shakllantirish yo‘llarini tanlaganda ish bilan bandlikning rivojlanishiga xos bo‘lgan va bozor iqtisodiyoti sharoitida saqlanib qolayotgan ichki vaziyat va aholiga xos bo‘lga udumlarni o‘rganish va tahlil qilishga asoslanish kerak. Chunki ish bilan bandlikning eng muhim ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi eng muhim omillar bevosita shular bilan bog‘liq.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish sharoitida ishsizlarni ish bilan band qilish va uni qayta shakllantirishning muhim qoidasi iqtisodiy va sotsial natijalarni murosaga keltirishdan iborat. Bu esa barqarorlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning hamma variantlari ularning ishchi kuchi bozoriga ta’siri nuqtayi nazaridan oldindan baholanishi va zarurat tug‘ilsa, ularga tuzatish kiritish kerakligini anglatadi.

6 O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan. www. stat. uz

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi “Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risi-da”gi 1011-son qarori.
2. World Economic Outlook. Update, Rising Caseloads, a Disrupted Recovery, and Higher Infaltion. International Monetary Fund. January 2022. P. 16 https://www. imf. org/en/Publications/WEO/Issues/2022/01/25/world-economic-outlook-update-january–2022#:~:text=The%20global%20economy%20enters%202022%20in%20a%20we aker%20 position%20than%20previously%20expected. &text=Global%20growth%20is%20expected%20to,in%20the%20 two%20largest%20economies.
3. Kunal Sen. Inclusive Growth: When May We Expect It?When May We Not? / Asian Development Review, 2014, vol. 31, no. 1, pp. 136–162.
4. Vellala P., Madala M., Chhattopadhyay U. A Theoretical Model for Inclusive Economic Growth in Indian Context/ International Journal of Humanities and Social Science, Vol. 4, No. 13/ November 2014.
5. Aoyagi Ch., Ganelli G. Asia’s Quest for Inclusive Growth Revisited / IMF, 2015.
6. Anand R., Mishra S., Peiris Sh. Inclusive Growth: Measurement andDeterminans / IMF, 2013
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti www. stat. uz
8. Jahon banki tomonidan berilgan ma’lumotlar asosida tuzilgan. https://data. worldbank. org/indicator/ NY. GDP. PCAP. PP. CD
9. https://www. gazeta. uz/ru/2020/07/02/employment/
10. https://strategy. uz/index. php?news=1013
11. https://sputniknews-uz. com/economy/20200713/14525188/Ozbekiston-hukumati-pandemiya-oqibatlarini-yumshatishga-qancha-mablag-sarfladi. html
12. Aholi turmush darajasi va inflyasiya. Axborot-tahliliy ma’lumot. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. – T. 2020-y. https://cbu. uz/upload/iblock/926/Turmush_darazhasi_va_inflyatsiya. pdf;
13. Markaziy bank asosiy stavkasini ko‘rib chiqish bo‘yicha Pul-kredit siyosati tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. – T. 2020-yil 23-iyul. https://cbu. uz/upload/iblock/3cd/Markaziy-bank-asosiy-stavkasini-korib-chiqish-boyicha-Pul_kredit-siyesati-tahlili. pdf
14. O‘zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi ma’lumotlari asosida https://mift. uz/uz

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.